

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Umumta`lim maktablari geografiya darslarida “Amerika Qo`shma Shtatlari” mavzusini o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish**

**F.S.Meliboyeva**

*QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari*

*kafedrasi katta o`qituvchisi*

**F.K.Otajonova-talaba**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Amerika Qo`shma Shtatlari” mavzusini o`qitishda ta`lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari hamda ushbu metodlardan qo`llanilish texnologiyasi yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** interfaol metodlar, ta`lim-tarbiya jarayoni, “Blits so`rov”, “Aqliy hujum”, “BBB”, “Insert”.

O`quv jarayoniga tatbiq etilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda Davlat ta`lim standarti” da o`quvchilarning bilishlari uchun zarur bo`lgan majburiy bilimlar hajmi aniq ko`rsatilgan. Ularni o`quvchilarga yetkazish, o`quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o`qiy olish va ijodiy izlanishga yo`naltirish, ularda o`z fikriy qobiliyatini rivojlantira borish ko`nikmalarini orttira olish uchun o`qituvchilar pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana oishlari zarur bo`ladi.

Hozirgi vaqtida ta`lim jarayonida o`qitishning zamonaviy metodlari keng qo`llanilmoqda. O`qitishning zamonaviy metodlarini qo`llash o`qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An`anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta`lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni

qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

**Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi.**

Umumta'lim maktablarini IX-sinf "Amerika Qo'shma Shtatlari" mavzusini o'qitilishida interfaol metodlarning quyidagi turlaridan foydalanishimiz mumkin:

- Aqliy hujum;
- Blits so`rov;
- "BBB";
- Insert.

Amerika Qo'shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan 4 aholisi soni bo'yicha esa 3-o'rinda turadi. Shuningdek, AQSH iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnologik qudrati bo'yicha zamonaviy jahonning yetakchi davlatlaridan biridir. AQSH hududi 3 qismdan iborat: Shimoliy Amerika materigining o'rta qismidagi kontinental shtatlar, Shimoliy Amerikaning shimolig'arbida joylashgan Alyaska hamda Tinch okeandagi Gavayi orollari. AQSH 3 ta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. U quruqlikda faqat Kanada va Meksika bilan chegaradosh. AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo'yicha ikkita davlat o'rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo'g'izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh.

**"Aqliy hujum"** metodi. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarining har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Masalan o`quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. AQSH maydoni jixatdan jahon mamlakatlari orasida nechanchi o`rinni egallagan?
2. Mamlakat hududi necha qismdan iborat?
3. Mamlakat qaysi okeanlarga chiqish imkoniyatiga ega?
4. AQSH quruqlikda qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
5. Qaysi bo`g`iz orqali Rossiya bilan chegaradosh?

Ushbu metod to‘g‘ri qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatad i. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi.

**“Blits - so`rov” metodi.** Blitz - so`rov metodi so`rovda ishtirok etuvchilar o`rtasida psixologik kommunikativ aloqani o`rnatadi. Savollar so`rovchi tomonidan oldindan tuziladi. Savollar qisqa javobni talab etadi. Bu metoddan o`quvchilarga o`rganilgan butun mavzu va uning ma`lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo`yicha tuzilgan savollarga javob ( og`zaki, yozma, jadval, diagramma) ko`rinishida taklif etiladi.

### **Blits – so`rov jadvali**

Savollar	Javoblar
Amerika Qo`shma Shtatlari maydoni	9519,4 ming km.kv
Mamlakatning eng yirik daryolari	Missisipi, Missouri, Kolorado, Kolumbiya, Rio-Grande
AQSH ning tub joy aholisi	Amerikalik hindular
Eng yirik shaharlari	Los-Anjeles, Nyu-York, Chikago, Xyuston, Filadelfiya
AQSH da aholi zichligi	35 kishi
Mamlakatdagi yirik megapolislar	Bosvash, Sansan, Chipits.

AQSHda 1790-yildan boshlab har 10 yilda muntazam ravishda aholi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ro‘yxatlari amalgalari oshiriladi. 1790-yildan 2010-yilgacha AQSH aholisi soni deyarli 80 barobarga oshgan va uning o‘sishi hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi bosqichda AQSH aholisining tabiiy ko‘payishi yillik hisobda 0,3–0,4 % ni tashkil etadi. AQSHda shahar aholisining ulushi 80 % dan yuqori. Eng yirik shaharlari – Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Xyuston, Filadelfiya. AQSH hududida 3 ta megalopolis shakllangan: shimoli-sharqdagi «Boston–Washington» (Bosvash), Buyuk ko‘llar bo‘yidagi «Chikago–Pitsburg» (Chipits) va Tinch okean bo‘yidagi «San-Fransisko–San-Diyego» (Sansan). AQSHning rasmiy tili – ingliz tili. Shuningdek, aholisining 50 mln. kishiga yaqini kundalik hayotda ispan tilida so‘zlashadi. Ispanzabon amerikaliklarning ulushi Meksika chegarasiga yaqin joylashgan Nyu-Meksiko, Kaliforniya, Texas, Arizona, Nevada shtatlarida ayniqsa, yuqori (20–45 %). AQSHda aholi zichligi o‘rtalik hisobda 1 km<sup>2</sup> ga 35 kishi

“**B/B/B**” metodi. Bilaman/Bilishni hohlayman/Bilib oldim. Mavzu, matn, bo`lim bo`yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. O`quvchilar Amerika Qo`shma Shtatlari mavzisi yuzasidan nimalarni bilasiz? Nimalarni bilishni hohlaysiz? Degan savollarga javob berishadi.

### **B/B/B jadvali**

<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni hohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
AQSH ning tub joy aholisi amerikalik hindular, AQSH ning rasmiy tili – ingliz tili ekanligini bilaman.	AQSH da aholi zichligi 1km.kv ga 35 kishi, lekin turli qismlarida turlicha. Buning sabablarini bilishni hohlayman	AQSH da shahar aholisi ulushini, mamlakatdagi yirik megapolislar haqida ma`lumotlarni bilib oldim

AQSH hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Alyaska va Gavayi shtatlarining relyefi ham, asosan, tog‘li. Alyaska hududida Shimoliy Amerika materigining eng baland nuqtasi – balandligi 6 194 metr bo‘lgan Denali (oldingi nomi – Mak-Kinli) cho‘qqisi joylashgan. Materikning eng past nuqtasi – Ajal vodiysi (-86 m) ham AQSHda, Kaliforniya shtatida joylashgan. AQSH

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g‘arbiy tog‘li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo AQSHda sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko‘p turlarini import qiladi. AQSH suv va gidroenergetika resurslariga boy. Mamlakatning eng yirik daryolari – Missisipi, Missouri, Rio-Grande, Kolorado, Kolumbiya.

**“Insert” usuli.** Insert samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib o‘rganishda yordam beradi. Bunda mavzular va boshqa materiallar oldindan o‘quvchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, V ; +; - ; ? belgilari orqali o‘z fikrini ifodalarydi. Insert jadvali mustaqil o‘qish jarayonida olinadigan ma‘lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat beradi. Oldindan olingan ma‘lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. Talabalar jadval tarkibi va uni to‘ldirish qoidasi bilan tanishishadi.

Matnni belgilash tizimi:

- (V)- Bilaman
- (+)- Maqullayman
- (-)- O‘rganishim lozi
- (?) –Tushunmadim

Tushunchalar	V	+	-	?
AQSH relyefi				
Foydali qazilmalari				
Daryolari				
Aholisi				
Shtatlari				

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga, DTS talablariga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o‘ynaydi. Dars mashg‘ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan

foydalanimish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o'zining samarasini ko'rsatadi. Amerika Qo'shma Shtatlari mavzusini o'qitishda "Aqliy hujum"metodi, "Blits so'rov" metodi, "B/B/B"metodi, "Insert"metodlaridan foydalanimish o'quvchilar e'tiborini yanada o'quv jarayoniga qaratishga xizmat qilganligi hamda ushbu metodlar qo'llanilishi oqibatida o'quvchilar xotirasini yanada mustahkamlashga erishildi.Ushbu metodlardan dars o'tish jarayonida foydalanimish o'zining ijobiy samarasini ko'rsatganligi o'z ifodasini topdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Umumiy o'rta ta`lim maktablari uchun o`quv darslik XI- sinf "Jahon Iqtisodiy-Ijtimoiy Geografiyasi" A.Qayumov, I.Safarov,M.Tillaboyeva, V.Fedorko
2. AvlayevO.U, Jo'rayeva S.N, Mirzayeva S.P, " Ta`lim metodlari" o`quv – uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent- 2017.
3. Internet ma'lumotlari
4. X.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultanova " GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI"
5. Бердиев, Ғайратжон Ҳасанбоевич, and Феруза Солижоновна Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
6. Мелибоева, Феруза Солижоновна, and Ғайратжон Ҳасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУГОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.
7. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРГОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

8. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europaische Fachhochschule* 1 (2016): 3-6.
9. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции “Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана”*. Самарканд. 2013.
10. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.